– virtual jamoalar: ijtimoiy tarmoqlarda ekologik muammolarni muhokama qilish va tajriba almashish uchun guruhlar yaratish [5;52–54-b.].

6. Tashkilotlar bilan hamkorlik.

– NNT bilan hamkorlik: bilim va resurslarni almashish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik;

– davlat-xususiy sheriklik: ekologik xabardorlikni oshirish bo‘yicha davlat organlari bilan qo‘shma tashabbuslar.

7. Targ‘ibot va axborot kompaniyalari.

– ekologik texnologiyalarga startaplar va investitsiyalar: ekologiya sohasidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

– axborot materiallarini ishlab chiqish: asosiy ekologik tushunchalar va masalalarni tushuntiruvchi risolalar, plakatlar, videoroliklar.

8. Tadbirlarda ishtirok etish.

–ekologik festivallar va ko‘rgazmalar: odamlar ekologiya sohasidagi yangi texnologiyalar va tashabbuslar bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan tadbirlarni o‘tkazish;

– ochiq eshiklar kuni: atrof-muhit ob’ektlarida yoki ushbu sohada ishlaydigan tashkilotlarda tadbirlar tashkil etish.

9. Munozaralar va muhokamalar.

– forumlar va davra suhbatlari: ekologiya va barqaror rivojlanishning dolzarb masalalari bo‘yicha ochiq suhbatlar o‘tkazish;

– debatlar: yoshlarni ekologik siyosat va innovatsiyalar muhokamalarida ishtirok etishga undash.

10. Shaxsiy javobgarlikni shakllantirish.

– barqaror iste’mol dasturlari: barqaror iste’mol va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga o‘rgatish;

– atrof-muhit xulq-atvori bo‘yicha treninglar: har bir inson o‘z uyida atrof-muhitni muhofaza qilishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi haqida darslar [6;17–20-b.].

Xulosa va takliflar. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish va turli usullarni birlashtirish jamiyatning ekologik muammolarga nisbatan ongliroq va mas’uliyatli munosabatini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida barqaror ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishga olib keladi. Ekologiyani o‘rganishga qaratilgan tadbirlarni interaktiv shaklda o‘tkazish.

Shunday ekan, bugungi kunga kelib tabiiy fanlarni o‘qitishda turli ko‘nikmalarni shakllantirish uchun pedagog kadrlar bilim saviyasi, kreativlik potensiali, ijodkolik qobiliyati kuchli darajada rivojlangan bo‘lishi va har qanday muammoli vazayatlarni muhokama qila oladigan ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi shart. Bu vazifalar esa oliy ta’lim muassasasi tomonidan hal qilinishi lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). "Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда" / https://yuz.uz/news/o‘zbekistonda-yangi-bir-uygonish--uchinchi-renessans-davriga-poydevor-yaratilmoqda

(2). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi./https://www.ekogazeta. Uz /xabarlar/5399

(3). Avazov Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Ekologik o‘lkashunoslik. O‘quv qo‘llanma, T., “Adabiyot uchqunlari”, 2016, 101–105-betlar.

(4). G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova. Biologiya 11-sinf, Toshkent, «Sharq», 2018, 36–39-betlar.

(5). Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 52–54-betlar.

(6). To‘xtayev A.S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma, «O‘qituvchi», 2001, 17–20-betlar.

Umarxo‘jayeva Xilola Sirojiddinovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti)

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) TA’LIM SOHASI TALABALARINING TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Annotatsiya. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim sohasi talabalarining tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklar, asosan, tala-*

balarning tahliliy va tanqidiy tinglash ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi, kommunikatsiya jarayonlarida pasiv ishtirok etishlari, shuningdek, nutq va ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishdagi muammolar bilan bog'liq. Tinglab tushunish ko'nikmasining samarali rivojlanishi uchun maxsus o'quv metodikalari va amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tahlil qilish va qaror qabul qilishda tinglash malakalarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati e'tiborga olinishi zarur.

Kalit so'zlar: *tinglab tushunish ko'nikmasi, autentik tinglash, texnologiya integratsiyasi, hamkorlikda o'rganish, AKT.*

ТРУДНОСТИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ СФЕРЫ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (ИКТ)

Аннотация. *Существует ряд трудностей в развитии навыков аудирования у студентов сферы образования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).Эти трудности в основном связаны с недостаточной сформированностью у студентов навыков аналитического и критического слушания, пассивным участием в коммуникативных процессах, а также проблемами правильного восприятия речи и информации. Специальные учебные методики и практические занятия имеют важное значение для эффективного развития навыков аудирования. Необходимо учитывать особую роль и значение навыков аудирования при научном анализе и принятии решений.*

Ключевые слова: *навыки слушания, аутентичное слушание, интеграция технологий, совместное обучение, ИКТ.*

Umarkhojyeva Khilola Sirojiddinovna (Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi)

DIFFICULTIES IN IMPROVING THE LISTENING SKILLS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY (ICT) STUDENTS

Annotation. *There are a number of difficulties in developing students' listening skills in the field of information and communication technologies (ICT). These challenges are primarily related to students' underdeveloped analytical and critical listening skills, passive participation in communication processes, as well as difficulties in accurately perceiving speech and information. Specialized teaching methodologies and practical exercises play a crucial role in effectively developing listening skills. It is essential to consider the particular significance and importance of listening skills in scientific analysis and decision-making processes.*

Keywords: *listening skills, authentic listening, technology integration, collaborative learning, ICT.*

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish malakalarini oshirishdagi qiyinchiliklar zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu sohada o'quv jarayonlarida tinglab tushunishning samarali rivojlanishi va o'quvchilarni faol tinglovchilarga aylantirish katta ahamiyatga ega. Biroq ko'plab talabalarning tinglash malakalarini oshirishda duch keladigan qiyinchiliklar ularning ta'lim va kasbiy faoliyatida muammolarni yuzaga keltiradi. Maqolada axborot-kommunikatsiya fakulteti talabalarining tinglash malakalarini oshirishdagi asosiy to'siqlar va bu muammolarni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim sohasi talabalarining ko'plab hollarda passiv tinglashga moyil bo'lishi ularning samarali o'rganish jarayonini cheklaydi. Passiv tinglashda talabalar faqat eshitish bilan cheklanib, ma'lumotni to'liq va chuqur anglamasliklari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, axborotni tahlil qilish va undagi muhim nuqtalarni ajratib ko'rsatish imkoniyatlarini kamaytiradi. Talabalarning faqat tinglash orqali bilim olishga urinishlari, ularning tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tarqalishi talabalarning diqqatini tarqatishi va tezkor ma'lumotlarga tezda kirish imkoniyatini yaratishi, ularning an'anaviy tinglash malakalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Multimedia vositalaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar talabalarning qisqa va tezkor m'lumotlarga o'rganishiga olib keladi. Buning natijasida ular uzoq davom etadigan va murakkab nutqlarni, maxsus ma'lumotlarni tinglashda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar. Yangi texnologiyalarning ta'sirida, talabalar faqat ma'lumotni tezda qabul qilishga e'tibor berib, uning mazmunini chuqur tahlil qilishni unutishadi. Ayniqsa, o'rganilayotgan tilning murakkabligi, jargonlar yoki o'ziga xos atamalarni tushunmaslik talabalar uchun alohida qiyinchiliklar tug'diradi. Xususan, ingliz tilida o'qiyotgan talabalar uchun texnik va maxsus sohalardagi ilmiy nutqlarni tushunish yanada murakkab bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun madaniy va lingvistik to'siqlarni yengish va tinglash malakalarini yaxshilashga qaratilgan o'quv metodlarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Keyingi yillarda til ta'limida AKT ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha tadqiqotlar muhim tadqiqot yoʻnalishiga aylandi. AKT vositalarining til ta'limiga integratsiyalashuvi tinglab tushunish darajasini oshirishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi.

Tinglab tushunish koʻnikmasini rivojlantirish, xususan, AKT ta'lim sohasi talabalarining tinglab tushunish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim metodologiyasi, psixologiya, lingvistika va kommunikatsiya sohalarini oʻz ichiga oladi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy ishlar turli yondashuvlar va metodlarni oʻrganishga qaratilgan boʻlib, talabalar tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari boʻyicha chuqur tahlillarni taqdim etadi.

Goh (2000) fikriga koʻra, tinglab tushunishning eng keng tarqalgan beshta muammosi quyidagilardir: oʻquvchilar "eshitganlarini tezda unutadilar, oʻzlariga tanish boʻlgan soʻzlarni tanimaydilar, soʻzlarni tushunadilar, ammo taxmin qilingan xabarni emas, xabarning keyingi qismini e'tiborsiz qoldirib, ma'no haqida oʻylaydilar va eshitilgan soʻzlar haqida fikriy tasavvurni shakllantira olmaydilar". Bu elementlar ingliz tilida soʻzlashuvchilar uchun eshitishni qiyinlashtiradigan elementlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, Indoneziyaning universitetlaridan birida N.Putri (2018) tomonidan oʻtkazilgan avvalgi tadqiqotda EFL talabalari akademik tinglab tushunish mashgʻulotlarida duch keladigan tinglab tushunish qiyinchiliklari oʻrganilgan. Tadqiqotga ellik nafar ishtirokchi tanlab olingan va ma'lumotlarni yigʻish uchun anketa va intervyulardan foydalanildi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, notanish leksika, nutq tempi va tegishli uskunalarning yoʻqligi talabalar duch keladigan eng muhim muammolar boʻlib qolmoqda. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ushbu muammolar etiologiyasida tashqi omillar ustunlik qiladi.

N.Sari (2019) "EFL talabalarining tinglab tushunish muammolarini oʻrganish" nomli tadqiqotida ma'lumotlarni toʻplash uchun kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish kabi muqobil yondashuvdan foydalangan. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻz tinglab tushunish koʻnikmalariga ishonchsizlik va nutqni eshitib tushunishga yetarli darajada e'tibor bermaslik kabi ichki omillar talabalar duch keladigan eng muhim muammolar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotlar nofilologik yoʻnalish talabalarida tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi va bu koʻnikmalarning ularning ta'lim sohalarida ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligini koʻrsatadi.

Natija va muhokama. Quyidagi tavsiyalar AKT talabalariga tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishda duch keladigan ayrim qiyinchiliklarni yengib oʻtishda yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan:

– tinglash mashgʻulotlari oʻquvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻqituvchilar oʻquvchilarga ona tilida soʻzlashuvchilar tomonidan aytiladigan tabiiy nutqni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan autentik tinglash materiallarini taqdim etishlari kerak;

– oʻqituvchilar oʻquvchilarning qiziqishini jalb qiladigan va tinglash koʻnikmalari va strategiyalarini egallashga yordam beradigan tinglash topshiriqlarini ishlab chiqishlari kerak. Bunday topshiriqlar nafaqat talabalarning tinglab tushunish darajasini baholashga, balki ularni topshiriqlarni bajarishni optimallashtirish uchun bir qator tinglash strategiyalaridan foydalanishga undashga ham xizmat qiladi;

– oʻqituvchilar oʻquvchilarga ma'ruzalar, radio yangiliklari, filmlar, teleseriallar, reklamalar va kundalik suhbatlarni oʻz ichiga olgan turli xil audiomateriallarni taqdim etishlari lozim. Shuningdek, talabalar suhbatlar va intervyularni qamrab olgan turli xil ogʻzaki ingliz tiliga duch kelishlari kerak.

Bundan tashqari, oʻqituvchilar oʻquvchilarini tez va tabiiy nutqning turli shakllarini eshitishga koʻmaklashish va ularni ona tili sifatida soʻzlashuvchilarning talaffuziga taqlid qilishga ragʻbatlantirish uchun talaffuz qoidalari bilan tanishtirishi zarur. Shu bilan birga, oʻqituvchilar oʻz oʻquvchilariga boshqa til egalarining talaffuzidan xabardor boʻlishda yordam berishlari kerak. Til egalari oʻz aksentlariga ega boʻlganligi sababli talabalar Amerika va Britaniya aksentlari oʻrtasidagi farqni tushunishlari kerak.

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ga ixtisoslashgan talabalarning tinglab tushunish kompetensiyasini oshirish birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki bu ularning ham akademik, ham kasbiy kontekstdagi muvaffaqiyatiga hissa qoʻshadi. Biroq oʻqituvchilar bir qator muammolarni hal qilishlari kerak, jumladan, faol tinglash odatlari, texnik jargon, chalgʻishlar, tezkor uzatish, til toʻsiqlari, motivatsiya yoʻqligi va tinglash amaliyoti uchun cheklangan imkoniyatlar. Pedagoglar faol tinglash, texnik atamalarni aniqlashtirish, oʻquv dasturiga turli xil yondashuvlarni kiritish kabi maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali oʻquvchilarning tinglash koʻnikmalarini rivojlantirishga va AKT sohasida yanada samarali muloqotchi boʻlishga yordam berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abbas Pourhosein Gilakjani. Narjes Banou Sabouri. Learners' Listening Comprehension Difficulties in English Language Learning: A Literature Review. English Language Teaching; Vol. 9, №. 6, 2016. ISSN 1916-4742 E-ISSN 1916-4750. Published by Canadian Center of Science and Education.

(2). Dewanti D. An Analysis of EFL Students' Difficulties in Listening Comprehension at STKIP Muhammadiyah Bogor. Jurnal Educatio. ISSN: 2459-9522 (Print), 2548-6756 (Online). Vol. 8, № 1, 2022, pp. 174–179.

(3). Goh. A cognitive perspective on language learners' listening comprehension problems. 2000, p. 55–75.

(4). Karakas. (2002). Study of Factors Affecting EFL Learners' English Listening Comprehension and the Strategies for Improvement. Journal of Language Teaching and Research, 2(5), p. 977–988.

Urazimbetova Zuxra Uzakbaevna (Phd student, Karakalpak State University, Nukus)

THE USE OF AUTHENTIC MATERIALS IS AN EFFECTIVE METHOD FOR DEVELOPING WRITING PROFICIENCY

Annotation. *This article provides information about the utilization of authentic materials in the writing process. The generation of words, sentences and paragraphs with grammatical accuracy necessitates a high level of knowledge and a capacity for deep thinking. It is of the utmost importance that a writer possesses the requisite linguistic abilities, including an understanding of grammar, vocabulary, punctuation and spelling, in order to facilitate effective communication through written language. The act of writing establishes a connection between the writer and the audience, thereby fostering the formation of a community of minds. It is widely acknowledged that the utilization of authentic material represents an efficacious methodology for the enhancement of writing abilities. This paper will examine the components of writing and the advantages of using authentic materials to enhance writing skills.*

Keywords: *skills, factual, imaginary creative, inventing, drafting, revising, editing, authentic materials, writing abilities.*

Urazimbetova Zuhra Uzakbaevna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi assistenti)

AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH–YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULI

Annotatsiya. *Ushbu ishda yozish jarayonida autentik materiallardan foydalanish ko'rib chiqilgan. So'z, gap va abzaslarni grammatik aniqlikda yaratish yuqori darajadagi bilim va chuqur fikrlash qobiliyatini talab etadi. Yozuvchi yozma til orqali samarali muloqot qilish uchun zarur til qobiliyatlariga ega bo'lishi, jumladan, grammatika, leksika, punktuatsiya va orfografiyani tushunishi juda muhimdir.Yozish jarayoni yozuvchi va auditoriya o'rtasida aloqa o'rnatadi, bu bilan fikrlar hamjamiyatining shakllanishiga yordam beradi. Autentik materialdan foydalanish yozuv malakalarini oshirishning samarali metodologiyasi ekanligi keng e'tirof etilgan. Ushbu ishda yozuv komponentlari va yozuv ko'nikmalarini oshirish uchun autentik materiallardan foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *qobiliyat, haqqoniy, xayoliy ijodiy, ixtirochilik, xomaki, qayta ko'rib chiqish, tahrirlash, autentik materiallar, yozma ko'nikmalar.*

Уразымбетова Зухра Узакбаевна (ассистент кафедры теории и практики перевода, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУТЕНТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ - МЕТОД УГЛУБЛЁННОГО РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМА

Аннотация. *В данной работе рассматривается использование аутентичных материалов в процессе письма. Создание слов, предложений и абзацев с грамматической точностью требует высокого уровня знаний и способности к глубокому мышлению. Очень важно, чтобы писатель обладал необходимыми языковыми способностями, включая понимание грамматики, лексики, пунктуации и орфографии, чтобы облегчить эффективное общение через письменный язык. Процесс письма устанавливает связь между писателем и аудиторией, тем самым способствует формированию сообщества мыслей. Широко признано, что использование аутентичного материала является эффективной методологией повышения навыков письма. В этой работе рассматриваются компоненты письма и преимущества использования аутентичных материалов для повышения навыков письма.*

Ключевые слова: *навыки, фактические, воображаемые, творческие, изобретательские, черновые, пересмотр, редактирование, аутентичные материалы, письменные навыки.*